

## IJTIMOY TARMOQLARDA TARQATILGAN XABARGA MUNOSABAT

—

**Ijtimoiy tarmoqlar orqali “Aholi ham toza suvdan iste’mol qilsa yaxshi bo’lardi...” sarlavhalı tanqidiy murojaat e’lon qilingan edi.**

**Ushbu murojaatda: - “Farg’ona viloyati Qo’shtepa tumani Baland masjid mahallasidan yozmoqdamiz. Navro’z kuchasida joylashgan suv minorasidan kattakonlardan biri o’zi foydalanadi. Aholi esa “kachat” va quduq suvidan ichadi. Aholi ham toza suvdan iste’mol qilsa yaxshi bo’lardi. Mazkur masala ijobjiy hal etilishiga ishonamiz” - deya shikoyat qilingan.**

**Baland masjid mahallasidan yo’llangan ushbu murojaat “Farg’ona suv ta’minoti” MChJ Qo’shtepa tuman bo’limi xodimlari tomonidan joyiga borib o’rganilganida quyidagilar ma’lum bo’ldi.**

**Baland masjid mahalla fuqarolar yig’ini Navro’z ko’chasida 706 ta xonodon mavjud bo’lib, 29 ta kichik ko’chalaridan tashkil topgan. Ushbu ko’chalaridan 18 tasida yashovchi 400 ta aholi xonadonlariga “Farg’ona suv ta’minoti” MChJ Qo’shtepa tuman bo’limi tomonidan tizimli ravishda ichimlik suvi yetkazib beriladi.**

**Murojaatda ko’rsatilgan tik ichimlik suvi qudug’idan Navro’z ko’chasidagi 1 ta kichik ko’chaga 300 metr tarmoq tortilgan bo’lib, 27 ta xonadonda istiqomat qiluvchi fuqarolar beminnat foydalanim kelmoqda.**

**Mazkur ichimlik suvi qudug’i “Farg’ona suv ta’minoti” MChJ Qo’shtepa tuman bo’limi balansida bo’limganligi sababli, bo’limi tomonidan xizmat ko’rsatilmagan.**

**Shuningdek, Baland masjid MFY Navro’z ko’chasida yashovchi 300 ta aholi xonadonlarida ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash maqsadida 2022 yilda Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan “Aholi turmush darajasini yaxshilash” dasturiga asosan dastlabki hisob-kitob ishlari olib borilmoqda.**

**Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-04-01 11:31:51